

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил 7-сон



**Бош мұхаррір:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул мұхаррір:** Илмий ишлар ва инновациялар бүйічі проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул мұхаррір үринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов

## **ТАҲРИРҲАЙТАИ**

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Раширова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширабоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. F.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник мұхаррирлар:** *Н.Юсупов, Г.Акмалжонова*

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи қўчаси, 316-уй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бүйічі Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.07.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (*Баённома № 7*). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021**



### **Список использованной литературы**

1. Будник Е.А. Фонетическая интерференция и иностранный акцент при обучении русскому произношению // Lingua mobilis. – Челябинск, 2012. – №3 (36). – С. 171-179.
2. Введенская Л.А., Павлова Л.Г., Катаева Е.Ю. Русский язык и культура речи. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2005. – 544 с.
3. Государственная стандарт и учебная программа русский язык для школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения (2-9 классы). – Т., 2017. – 251 с.
4. Торгун С.Н. Формирование орфоэпической культуры студентов-нефилологов: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ярославль, 2009. – 27 с.

### **INSONIYLIK VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI**

Sobirova Mahbuba Yusupdjonovna

Namangan davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

*Annotation:* maqolada inson, uning xarakteri, inson xarakter xususiyatini aks ettiruvchi birliklar, insoniylik, insonparvarlikning asosiy masalasi, insoniylik g'oyalari xususida Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlari, xususan, Alisher Navoiy fikrlari, umuminsoniy qadriyatlar, hozirgi zamon antropologik falsafasining inson mohiyati to'g'risidagi xulosalari yoritiladi.

*Ключевые слова:* inson, insonning xarakteri, insoniylik, insoniylik g'oyalari, Alisher Navoiy fikrlari, umuminsoniy qadriyatlar, gumanistik pozitsiya.

### **ТОЛКОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧНОСТИ И ВСЕОБЩИХ ЦЕННОСТЕЙ**

Собирова Махбуба Юсупджоновна

Доцент Наманганского государственного университета, кандидат пед.наук

*Краткая аннотация:* В статье рассматриваются взгляды мыслителей Востока и Запада на человека, его характер, единицы, отражающие сущность человеческого характера, человечность, главную проблему человечества, идеи человечности, в частности взгляды Алишера Навои, общечеловеческие ценности, выводы о человеческой природе современной антропологической философии.

*Ключевые слова:* человек, человеческий характер, человечность, идеи человечности, мысли Алишера Навои, общечеловеческие ценности, гуманистическая позиция.

### **INTERPRETATION OF HUMANITY AND UNIVERSAL VALUES**

Sobirova Mahbuba Yusupdjonovna

Associate Professor of Namangan State University,

Candidate of Pedagogical Sciences



**Brief annotation:** The article covers the views of Eastern and Western thinkers on man, his character, the units that reflect the nature of human character, humanity, the main issue of humanity, the ideas of humanity, in particular, the views of Alisher Navoi, universal values, conclusions about the human nature of modern anthropological philosophy.

**Keywords:** man, human character, humanity, ideas of humanity, thoughts of Alisher Navoi, universal values, humanistic position.

Inson deb nomlanuvchi biosotsial uyushma tirik mavjudot sifatida o'z hayoti cheklanganligini tushunib olishi bilan olamdag'i boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, olamdag'i tirik mavjudotlar ichida inson o'z umrining chegarasi, muddati borligini tushunadi va yillar mobaynida uring xarakteri shakllana boshlaydi.

Dunyo ilm-fanida xarakter mavzusi bilan qiziqish qadimgi antik davrdan boshlangan. Mavzuning ilk tadqiqotchilari ham qadimgi dunyo faylasuflaridir. Xususan, Arastu, Gippokrat, Galen, Lukretsiy Kar tomonidan xarakter xususida aytilgan fikr-mulohazalar mavzuning keyingi tadqiq yo'nalishlariga asos vazifasini bajargan. O'rta asr Yevropasi antik dunyo faylasuflarining qarashlaridan unumli foydalangan.

Xarakter xususida keltirilgan mulohazalar orasida Arastu qarashlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Olim tragik asar qahramoni xususida fikr yuritib, xarakterni inson xatti-harakatlarining markaziga qo'yadi. [1] Ayni mavzu tadqiqi bilan psixologiyada G.V.Gegel', I.G.Gerder, R.Dekart, V.Gumboldt, I.Kant [2] shug'ullangan va mazkur tadqiqotlar barcha ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan fanlar uchun ahamiyatli. Xarakter kategoriyasining yirik masshtabda, sotsial muhit va undagi omillar ta'sirida o'rganilishi, Vlasova L.A., Voloshkina I.A., Gurskaya S.L., Din Txi Txu Xuen, Koralyova Ye.V., Lukashevich N.Yu., Makarova N.G., Mordvina-İłodro O.A., Najenko Ye.V., Semushina Ye.Yu., Terexova N.V. va boshqa olimlarning [3] izlanishlari, xususan, xaraktereologik testlarning joriy qilinishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu testlardan, nafaqat psixologiyada, zamонави tilshunoslikda ham foydalaniлади.

Inson bugunmi, ertami o'lim muqarrarligini tushunib yetgani uchun ham, uning oldini olish, o'z hayotini mazmunliroq qilishga intiladi. Hamisha yangi-yangi orzu-istiklar ummonida yashaydi. Insonning xuddi shu orzu-umidlari, intilishlari - yaxshilik, to'g'rilik, adolatlilik, insoniylik, insof kabi tushunchalarda o'z ifodasini topadi. Kimki maqsadsiz, orzusiz, umidsiz yashasa, unda axloq ham, odob ham bo'lmaydi. Axloqsiz, odobsiz, umidsiz insonning esa hamisha tuhmat-bo'htonga mayli ko'p, adolatsizlik, hatto yovuzlikka intilishi katta bo'ladi. Olamdag'i tirik mavjudotlar ichida o'z umrining qisqaligini tushunib yetgan o'sha odam bolasida nega yaxshilik bilan yomonlik, to'g'rilik bilan yolg'onchilik, adolatpeshalik bilan adolatsizlik mavjud bo'ladi? Inson o'zining ma'naviy qiyofasidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun asrlar osha kurashdi. Bunday muammolar yechimini ba'zan dindan, ba'zan fandan qidirdi. Boshqacha aytganimizda, inson hayotga va o'limga hamisha o'zining munosabatini bildirdi. Xuddi shuning uchun ham ushbu muammolar insoniyat madaniyatining markazida bo'ldi.

Jahon madaniyati tarixi guvohlik berishicha, inson o'z umrini uzaytirish, hayotini yanada sermazmun qilish, uni har tomonlama boyitish, ko'proq yashash uchun uzlucksiz intilib keldi. Jismonan abadiy yashash uchun imkoniyat bo'lmasa, ruhan yashash, axloqiy jihatdan o'limni



yengish yo'llarini, uslublarini qidirdi. Aniqroq qilib gapiradigan bo'lsak, inson hamisha hayotdan qoniqmaslik tuyg'usi bilan yashadi. Bu holat hozir ham davom etayotir.

Inson xarakter xususiyatini aks ettiruvchi birliklar: so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, paremalar "O'zbek tilining izohli lug'ati" [4], "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" [5], "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" [6], "O'zbek xalq maqollari" [7], "Islom ensiklopediyasi" [8], "Xotin-qizlar ensiklopediyasi" [9] lug'at maqolalarida sharhlangan va ta'riflangan. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "inson" 1. Odamzod, bashar. 2. Har bir yakka shaxs; odam. 3. Kimsaga murojaat shakli" tarzida; "insoniy" so'ziga "1. Insonga, odamga xos. 2. Insonparvar, odamparvar" kabi shaklda; "Insoniylik" insongaga xos fazilat, xususiyat, tariqat" deb va "insonparvarlik" so'zi "insonparvar shaxsga xos xususiyat, xattiharakat" tarzida izohlanadi. [10]

Insoniylik — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insongaga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir.

Sharq falsafasi va ijtimoiy tafakkurida insoniylik g'oyalari azaldan keng tarqalgan bo'lib, uning ko'p ming yillik tarixi bilan chambarchas bog'liq. O'rta Osiyolik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar asarlarida insoniylik, inson erkinligi, uning qadr-qimmati g'oyalari olg'a surildi. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat'iy quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaati, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insongaga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dirlari, jumladan islom dinida ham insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag'al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo'lishga da'vat qilinadi.

Insoniylik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor Yevropada Uyg'onish davrida shakllangan. Insoniylik g'oyalari Yevropada o'rta asrlarda insonning kamsitilishiga, uni xudo va din nomidan haqoratlab inkvizitsiya gulxaniga tashlagan shafqatsiz dindorlarga va ularni q'llab-quvvatlagan jamiyat vakillariga qarshi, inson huquqlari uchun murosasiz kurash sifatida namoyon bo'ldi.

Gumanizm (lot. *humanus* — insoniy) — odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilishdir. Gumanizm tor ma'noda — Uyg'onish davri (13 – 16-asrlar)da sxolastikaga va cherkovning ma'naviy hukmronligiga qarshi turgan dunyoviy hurfikrlilikdir. G'arbiy Yevropadagi bir necha mamlakatlarda gumanizm ijtimoiy tafakkur sohasida, adabiyot, san'at va ilm-fanda katolitsizmga va shaxsnинг qulligiga qarshi qaratilgan ilg'or harakat edi. Gumanizm tarafdarlari o'z zamonasining taraqqiyat parvar kuchlari bo'lgan. Ular inson huquqi va olijanob fazilatlar, ilm-ma'rifat va hurriyat uchun, kishilarning har tomonlama erkin rivojlanishi uchun kurash olib bordilar.



Gumanizmning atoqli namoyandalari F. Petrarka, J. Bokkachcho, Leonardo da Vinci, J. Bruno, T. Kampanella (Italiya), M. Monten, F. Rable (Fransiya), T. Mor, F. Bekon (Angliya), E. Rotterdamlik (Niderlandiya), N. Kopernik (Polsha) va boshqalar edi.

Insonparvarlik masalasida Alisher Navoiy ijodi tubsiz ummonga o'xshaydi. Zero, ul zotning boy ma'naviy merosi shu qadar keng va salmoqliki, unda qayd etilgan mavzularda hayot hodisotlari, inson turmushi, ichki kechinmalari bilan bog'liq barcha jihatlar qalamga olingan. Shoир o'quvchi e'tiborini eng muhim tushunchalarga qaratadi. Ularning har biriga alohida urg'u beradi: ko'ngil, iymon, saxovat, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm kabilar teran sharhlanadi. Asarlarida inson, insoniylik belgilari, "odamiylar odamiysi", ya'ni bugunning tili bilan aytganda, komil shaxs haqida betakror fikrlar uchraydi. Navoiy insonni ulug'laydi. Uning ko'ngli muqaddas ekanligini takror-takror ta'kidlaydi. Ayni paytda har bir kishi ezgu nom qoldirishi, umrini yaxshiliklar qilish bilan bezashi muhimligini uqtiradi. SHuning uchun bo'sa kerak, yillar, asrlar o'tsa-da, bobokalonimizning ijodiga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Alisher Navoiy komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g'azallari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Holoti Sayid Hasan Ardashe", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalarda komil inson qanday bo'lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan. Navoiyning komil inson ta'limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo'lgan muhabbat belgilaydi. U payg'ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so'fiylar to'g'risida so'z yuritganda, g'azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Alisher Navoiy asarlarida har tomonlama rivojlangan barkamol insonning qiyofasi, uning barkamolligi, orifligini ifodalovchi mezonlar, o'lchovlar haqida ham ajoyib fikr-mulohazalar yuritilgan. Uning yozishicha, barkamol insonning eng muhim fazilatlaridan biri – xalqparvarlik, vatanparvarlikdir. Yurt tashvishi bilan yashab, xalqqa ko'p foyda yetkazgan kishini chinakam insonparvar odam deb hisoblaydi. Bunday fikr-mulohazalarni A.Navoiyning "Arba'in hadis" asarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur,  
Eshitib shubha ayla raf andin.  
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,  
Yetsa ko'proq uluska naf andin.

Barkamol insonga xos fazilatlarni Alisher Navoiyning mashhur qahramoni - Farhod obrazida ham ko'rish mumkin. Farhodning fe'l-atvori, yurish-turishida, faoliyatida, fozil insonga xos fazilatlarning barchasi jamuljam edi. Ayniqsa, ilmu-hunar o'rganishga chanqoqlik, halol mehnat qilish, axloqiy poklik Farhod shaxsini yanada ulug'laydi, shuning uchun ham el-yurt Farhodni e'zozlaydi. Shoир Farhodning bunday insoniy fazilatlarini quyidagicha ta'riflaydi:

Demonkim, ko'ngli poku ko'zi pok,  
Tili poku, so'zi poku o'zi pok.  
Munungdek tiynati pokiga loyiq,  
Duosin aylabon poki xaloyiq.

Insonning mohiyati haqidagi ta'riflar rang-barang. Suqrotning «O'zingni angla» degan serma'no fikri har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Sharq falsafasi tarixida ham

inson bosh mavzulardan biridir. Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir insonning barcha oljanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni - baxtli bo'lishi va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Bundan farqli o'laroq, Abu Homid G'azzoliy bu ustunlikni aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko'rsatdi: aql imkoniyatlari cheklanganligini isbotlashga harakat qilgan tasavvuf ta'limotida komil inson asosiy g'oyalardan biri edi.

G'arb mutafakkirlari ham insonni turlicha ta'riflaganlar. Nitshe inson - va'da berishga qodir, bizni axloq qoidalari dunyosiga olib kiruvchi jonzot tarzida ta'riflagan. Bu ta'riflarni falsafa tarixida insonning mavjudligi yagona ishonchli dalil asosida aniqlangan davrda dunyoga kelgan ta'riflar bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, F.Dekartning «Fikrlayapman, demak, mavjudman» yoki J.Berklining «Mavjud bo'lish - idrok etilish demak», Men de Biranning «Xohlayapman, demak, mavjudman», A.Kamyuning «Isyon qilyapman, demak, yashayapman» kabi fikrlari ham inson tabiatini va mohiyatining yangi-yangi qirralarini namoyon etadi. Bunga F.Nitshe insonning bosh g'oyasi deb e'lon qilgan hokimiyatga intilishni yoki Z.Freyd g'oyasini qo'shib, iqtisodiy materializmning iqtisodiy omili ahamiyatiga e'tibor qaratsak, inson to'g'risidagi fan - falsafiy antropologiyaning muammolar doirasi nihoyatda kengligi ayon bo'ladi. Hozirgi zamon falsafasining yirik vakillaridan biri bo'lgan E.Fromm insonga bo'lgan sof va samimi muhabbatni butun yer yuzi xalqlari o'rtasida tinchlik, totuvlik, hamkorlik munosabatlarini qaror toptirishning muhim omili deb hisobladi: insonning eng muhim qobiliyati sifatida sevish qobiliyati, san'atlar ichida eng muhimi sevish san'ati ekanligini ko'rsatdi.

Insoniylik g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobjiy, oliyanob fazilatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning uchun komil inson, insoniy qadriyatlarni singdirish masalasi o'tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, buddaviylik va islom ta'limotlarida komil inson g'oyasi yetakchi o'rinda turadi. Masalan, zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". Mana shu uchta qoidaga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblanadi.

Musulmon inson doimo kamolotga intiluvchi shaxsdir. Islom kamolotdir. U doimo barcha sohada, jumladan, insoniy aloqalar bobida ham kamolotga undaydi.

Islomdagi insoniy aloqalarning asosini yaxshilik tashkil etadi. Bu, barcha insoniy aloqalar faqat yaxshilikdan iborat bo'lishi uchun harakat qilish deganidir. Albatta, Islomdagi insoniy aloqalarning har biriga atab alohida kitoblar yozilgan. O'tgan ulamolarimizdan Termiziyning rivoyatlarida «Musulmonning musulmonda ma'ruf yo'lli ila olti haqqi bordir: uni uchratsa, salom beradi; da'vat qilsa, unga ijobat etadi; aksa ursa, unga yaxshilik tilaydi; bemor bo'lsa, borib ko'radi; vafot etsa, janozasiga ergashadi va o'ziga yaxshi ko'rgan narsani unga ham yaxshi ko'radi», deyilgan.

Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson mohiyati to'g'risidagi xulosalari quyidagicha:



Inson tabiatan noyob va universaldir. U tabiat rivojining buyuk mahsuli, noyob qobiliyat sohibidir. Inson uchun instinkt ham, nozik did ham, ulug'vorlik va yaratuvchanlik ham xosdir. Insonda ichki va tashqi olam mujassamlashgan. Insonning ichki olami faoliyatning turli shakllarida - mehnat, muloqot, badiiy ijod, xulq- atvor va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Inson juda ko'p qismlardan tashkil topgan yaxlit birlikdir. Har bir insonda tabiiylik, ijtimoiylik, aqlililik, hissiylik, ahloqiylik mujassamlashgan.

Inson tarixiy mavjudotdir. U o'zining ana shu xususiyati bilan kelajagini yaratadi. Inson ertangi kuniga tashvish bilan ham qaraydi, chunki uni inqirozlar, omadsizliklar ham ta'qib etadi. Inson mas'uliyat hissidan qochib qutulmaydi.

Inson hayotining mazmuni va ma'nosi haqidagi fikr-mulohazalarimiz, inson zoti yer yuzidan yo'q bo'lib ketishi mumkinmi? Uni saqlab qolish uchun nima qilmoq darkor? Insoniyatning yer kurrasida bundan keyin yashashi uchun kafolat bormi? degan muammolarga borib taqaladi.

Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotgan bo'lsa-da, o'z navbatida, odam uchun dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda. Demak, u gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina vaziyatdan chiqqa oladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

- <sup>1</sup> Арасту.Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.– Б. 40- 48.
2. Мерзлякова И.С. Лингвокультурные концепты и их роль в формировании национального характера на материалах Франции: Дисс... канд. филол. наук.– Улан-уде,2010. – С.32. Коллектив. Вопросы психолингвистики. //Научный журнал теоретических и прикладных исследований. – Москва,2007. –С. 43.
3. Власова Л.А. Темперамент и его проявления в лингвистических характеристиках и психологических компонентах речи: Автореф. дисс... канд.филол.наук.–Москва, 2007.– С.51; Волошкина И.А. Фразеосемантические поле характер человека на материале французского языка: Дисс... канд. филол. наук.– Белгород, 2009. – С.29; Гурская С.Л. Имена существительные общего рода, характеризующие человека в ярославских говорах: Автореф. дисс... канд. филол.наук.– Ярославль, 2010.–С.24; Динь Тхи Тху Хуен.Русские. Фраеологизмы со значением характера человека с позиции носителя вьетнамского языка: Автореф. дисс...канд. филол. наук.– Москва, 2001.–С.44; Коралёва Е.В. Нестандартные коммуникативные ситуации с участием представителей разных психологических типов темперамента (на материале судебной речи): Автореф. дисс... канд. псих. наук. –Москва, 2004.–С.66; Лукашевич Н.Ю. Когнитивно-семантический анализ предикатов, обозначающих черты характера человека: Автореф. дисс... канд. филол. наук.– Москва, 2004. – С.16; Макарова Н.Г. Гендерные различия в проявлениях волевых черт характера: Автореф. дисс... канд. псих. наук.–Москва, 2004.–С.41; Мордвина–Щодро О.А. Антонимо– синонимические блоги предлагательных, называющих черты характера: лингвокультурологический аспект: Автореф. дисс... канд. фил. наук.– Санкт-



Петербург, 2007.-С.56; Наженко Е.В. Этнокультурная специфика стереотипов – концептов национального характера: “уворенность в себе”, “патриотизм”, “успешность”: Автореф. дисс... канд. филол. наук.– Кемерово, 2008.-С.53; Семушкина Е.Ю.Сопоставительный анализ субстантивных фразеологических единиц и сложных слов, семантически ориентированных на характер человека в английском и русском языках: Автореф. дисс... канд. фил.наук.–Казань, 2004.-С.121; Терехова Н.В. Семантико – функциональный анализ имен прилагательных со значением характер человека в современном русском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук.– Махачкала,2002.– С.69.

4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.–Тошкент:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2006.I-V жилд.

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.–Тошкент: Ўқитувчи,1979.

6.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2005.I-XII жилд.

7. Ўзбек халқ мақоллари.–Тошкент: Фан,1983.

8. Ислом энциклопедияси.–Тошкент:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2004.

9. Хотин-қизлар энциклопедияси.–Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2012.

10.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.–Тошкент:Ўзбекистон, 2020.Тузатилган 2-нашр.2-жилд.

## **РИВОЖЛАНГАН ДАВЛАТЛАРДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ**

### **ТАШКИЛ ЭТИШ БОРАСИДАГИ ТАЖРИБАЛАРИ**

ҚДПИ Жисмоний маданият кафедраси катта ўқитувчилари

Абдуваҳид Ғофуров.

Абдушокир Ғофуров.

**Аннотация:** Уибу мақолада юқори малакали мутахасислар тайёрлаши жараёни миллий ва дунёning нуғузли олий ўқув юртлари тажрибаси мисолида ўрганилган. Ўқув жараёнига инновацион таълим технологияларини жорий этиши, иктидорли ёшларни аниқлаши, уларда илм-ғанга қизиқишини уйготиш йўлларихамда фан таълим ишлаб чиқаришининг юқори малакали мутахасислар тайёрлаши сифатига таъсири тадқиқ қилинган. Олий таълим тизимида юқори малакали мутахасислар тайёрлашнинг самарадорлигини оширишининг долзарб масалалари аниқланган ҳамда уларнинг ечими юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Kalit so‘zlar:** tajriba, ta’lim, tarbiya, texnologiya, fan, model, qiyos, strategiya, rasmiy, norasmiy.

## **ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ**

Старшие преподаватели кафедры физической культуры ҚДПИ

Абдуваҳид Гафуров.

Абдушокир Гафуров.

**Аннотация:** В данной статье изучен процесс подготовки высококвалифицированных специалистов на примере опыта престижных высших учебных заведений страны и мира.



107	English classes in medical simulation training centre as a tool of development of communicative professional skill Matveeva I.A .....	572
108	Семантик майдон назарияси ҳақидағи қарашлар Искандарова Ш. Шокирова М.....	576
109	Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда мантиқий фикрлаш компетенцияларини такомиллаштириш Ишмуродова Г.И, Махманов Э.Б .....	580
110	Maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy bazasini vujudga keltirish va mustahkamlash muammolari. Raximova F. M, Madaminova X.R .....	586
111	Олий таълим бошқарувидағи муаммолар ва истиқболдаги вазифалар таҳдили Асатуллоев И.А .....	591
112	Компьютер имитацион моделлар асосида мультимедиали электрон қўлланмалар яратишнинг назарий асослари Суюмов Ж.Ю., Лутфиллаев М.Х. ....	596
113	Methods of distance learning english language for graduates of general secondary education Muhitdinova M.R .....	601
114	Применения интерактивных методов в преподавании русского языка в национальных группах технических и технологических вузов Каримов М.А .....	606
115	Профессиональная компетентность педагога в условиях пандемии коронавируса Мамаджанова М.Р .....	609
116	Ўрта таълим ўзбек тилида ўқитиши мактабларида рус орфоэпияси кўникумларини мустахкамлаш ва ўргатиш масаласи Абдуллаева С.Н .....	613
117	Insoniylik va umuminsoniy qadriyatlar talqini Sobirova M.Y .....	619
118	Ривожланган давлатларда таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этиш борасидаги тажрибалари Фофуров А, Фофуров А .....	625
119	Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda axborot texnologiyalar fanini o'qitish jihatlari Hamroyev R R .....	631
120	Умумтаълим мактабларида шахмат тўгаракларини ташкил этиш тизими Холиқов У.Қ .....	635
121	Tilshunos talabalarning kommunikativ kompetensiyasini internet texnologoyalari orqali rivojlantirishning printsiplari va uslublari Xusanov X. Y .....	641